

TA'LIM OLGANLIKNI TASHXIS ETISH

Mohinur Pardayeva Sobirjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Tarik fakulteti

“Maktab menejmenti” yo‘nalishining 3-bosqich talabasi

@Moonlight7Education

+998906671012

Annotatsiya

Dunyo bo‘ylab yangiliklar shiddat bilan o‘tib borayotgan hozirgi davrda ta‘lim tizimimizning ko‘rsatayotgan natijalarini tahlil va tashxis etishimiz, shu o‘rinda olingan natijalarga asosanib kerakli o‘zgartirish va qo‘shimchalarni qo‘shishimiz eng dolzarb vazifalarimiz qatoridan joy oladi. Shu bois ham o‘qituvchi - o‘qitish bilan bir vaqtda talabalarning, umuman olganda ta‘lim oluvchilarning o‘rgatilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo‘llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak. Hisobga olish nima degani, bu - o‘qitishning muayyan bir davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalashni anglatadi. Hisobga olish natijasida o‘qituvchi ham, talaba ham o‘zlarining keyingi bajaradigan ishlari shaklini va mazmunini belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, o‘zlashtirishni hisobga olish talabalarning bilish faoliyatini rag‘batlantirgan holda, ma‘lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o‘zlashtirishni hisobga olish o‘qituvchi faoliyatini ham chetlab o‘tmaydi va uni tashkil etadi. Global davrda o‘qitish metodlari va shakllarining tobora takomillashuvi natijasida, baho - o‘qituvchining pedagogik mahorati ko‘rsatkichiga aylanmoqda va o‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu maqolada ta‘lim tizimida o‘rganuvchilarning ta‘lim olganlik darajalarini aniqlashda bizga kerak bo‘ladigan bir necha nazariy bilimlar va ularning xususiyatlari to‘g‘risidagi fikrlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: hisobga olish, tashxis, nazorat, xolislik, baholash, tizimlilik, ko‘rgazmalilik, reyting va shkalalash.

Tekshirishdan tashqari nazorat o‘z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. Baholash deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. Baho deb baholashning ball shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytiladi. Bahoni amalda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan davlat ta‘lim standartiga ko‘ra o‘zlashtirilishi belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar umumiy hajmi o‘rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta‘riflash)dan ta‘lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O‘zlashtirish (ta‘lim samaradorligi) ko‘rsatkichi $B'A/T \cdot 100\%$ nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o‘zlashtirish (ta‘lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o‘zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o‘zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to‘liq hajmi.

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Ta‘lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta‘lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta‘lim olganlikni tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga

o'shish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Hisobga olish – bu o'qitishning muayyan bir davrida talabalar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Xolislik (obyektivlik) - tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati, hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat.

Tizimlilik (sistemalilik) - tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) - tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi.

Nazorat - (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi. O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish o'ta muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonida egallanishi lozim bo'lgan nazariy materiallar bo'yicha olinayotgan bilimlarni yanada mukammallashtirish va eng asosiysi ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatlarini yuksaltirish uchun turli vositalarni tanlash imkoni vujudga keladi. Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalari - o'rganilayotgan fan (mavzu) bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar bazasi (bilimlar banki)dan ta'lim beruvchi tomonidan tayyorlangan (tuzilgan) topshiriqlar, savollar, test savollar va shu kabilar, hamda ulardan foydalanish vositalaridir. Bunday jarayonlarda natijalarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijalarni o'zlashtirish - bu olingan natijalarni amaliy o'zlashtirishga tayyorlash jarayonidan, ya'ni iste'mol uchun tayyorlashdan iboratdir. Bunda ta'lim beruvchi ishtiroki muhim rol o'ynaydi, chunki kerak bo'lganda ayrim zaruriy tuzatishlar kiritish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Umuman olganda ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, nazorat quyidagi funksiyalarga ega:

1. Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasi orqali bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2. Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini o'stirish funksiyasi. Nazorat natijasida talabalarda o'z bilim, iqtidor va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish ishtiyoqi uyg'onadi.

3. Nazorat jarayonida ta'lim oluvchilarning shaxsiy jihatlari shakllantiriladi va eng asosiysi, rivojlantiriladi. Rivojlanish faol o'quv orqali, shu jumladan nutq faoliyati orqali amalga oshiriladi.

4. Ta'lim funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. O'quv materiallari yanada chuqur o'zlashtiriladi.

5. Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalarning psixologik ijobiy hislatlari shakllanib boradi.

6. Nazoratning baholash funksiyasi. Nazorat natijasida sifat o'zgarishlarining me'yori aniqlanadi.

7. Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilimga qiziqishni uyg'otish, jonli fikrlashga o'rgatuvchilik funksiyasi.

Ma'lumki, nazorat asosan uch turga bo'linadi, ular: joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlardir. Bulardan tashqari so'nggi nazorat turi ham bor. Nazorat - testlar, yozma ishlar va og'zaki savol-javoblar orqali amalga oshiriladi.

Reyting deganda - baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, birorta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting yordamida psixologik obyektlarni, ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baholash) dastlabki klassifikatsiyalash amalga oshiriladi.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtiradi. Ularning turli uslublari, tavsiflari qaysi bir miqdoriy o'zgaruvchilarga turlicha aylantirish uslublari iborat.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim, o'rta - maxsus, kasb - hunar ta'limini va oliy ta'lim bosqichlarida o'quvchi-talabalar bilimi reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli o'quvchi-talabalarni butun o'qish davomida o'z bilimlarini oshirish uchun muntazam ishlashni hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishni rag'batlantirish g'oyasiga asoslanadi.

Bilimlarni baholashda reyting nazorat tizimiga o'tish orqali qator vazifalar hal etiladi. Jumladan:

- o'quvchi-talaba bilimining sifat ko'rsatkichlarini haqqoniy, aniq va adolatli ballar bilan baholash;
- o'quvchi-talabalarining o'zlashtirishini doimiy nazoratga olish bilan ularning o'z ustida butun o'quv yili davomida faol ishlashini jonlantirish;
- o'quvchi-talabalar mustaqil ishlarining samaradorligini oshirish;
- reyting nazoratida EHMLi va EHMsiz testlardan foydalanish;
- ko'plab kamchiliklarga ega bo'lgan mavjud sinov, imtihon sessiyalaridan voz kechish.

Reyting nazorat tizimining asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha talaba o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlarini ballar bilan baholash yotadi.

O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg'unligi

Umumiy qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 25-avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlan-gan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida»gi nizomda shunday deb ta'kidlanadi: "Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad -ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarining fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat". Albatta o'z navbatida ta'lim oluvchilar ishtirokida o'tkaziladigan har qanday nazorat sinovlar, nafaqat mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularga chora ko'rishdan, balki o'quvchi-talabalarining o'z bilim darajasiga shaxsiy baho berishiga ham yaratib berilgan imkoniyat ekanligini tushunishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" gi O'RQ-637-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat isnpeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 515-sonli qarori.
4. O'quv jarayoni sifatini monitoring qilish: tamoyillar, tahlil, rejalashtirish / muallif-komp. G.P. Popova va boshqalar - Volgograd: O'qituvchi, 2010 yil.
5. A.N.Maiorov. Ta'limda monitoring. SPb .: Ta'lim-madaniyat, 1998 yil.
6. <http://tdi.uz>
7. <http://yuz.uz>
8. <http://goaravetisyan.ru>